

## **PSIXIK RIVOJLANISH NAZARIYALARI VA TA'LIMOTI**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Jismoniy madaniyat yo'nalishi 1-kurs talabasi*

***Saydullayeva Maftuna***

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Jismoniy madaniyat yo'nalishi 1-kurs talabasi*

***Siddiqova Muhlisaxon***

Psixik rivojlanish insonning tug'ilishidan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, u biologik, ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida shakllanadi. Ushbu jarayonni tushuntirish uchun turli nazariyalar ishlab chiqilgan. Psixologiyada psixik rivojlanishni izohlovchi asosiy yondashuvlar qatoriga biogenetik, sotsiogenetik va psixogenetik nazariyalar kiradi. Biogenetik nazariyaga ko'ra, inson rivojlanishida irsiyat asosiy rol o'ynaydi. Sotsiogenetik yondashuv esa rivojlanishda muhit va tarbiyaning ahamiyatini ta'kidlaydi [3]. Psixogenetik nazariya esa shaxsning ichki psixik jarayonlari va faoliyatini markazga qo'yadi.

O'zbek va rus psixolog olimlari ham bu masalaga katta hissa qo'shgan. Xususan, psixik rivojlanish qonuniyatlari, yosh davrlari va ta'lim-tarbiya bilan bog'liqligi keng o'rganilgan. Bu yondashuvlar ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Psixik rivojlanish ta'limoti shuni ko'rsatadiki, insonning intellektual va shaxsiy kamoloti uzluksiz jarayon bo'lib, ta'lim va tarbiya orqali boshqarilishi mumkin. Shu bois, pedagogik jarayonda yosh xususiyatlarini inobatga olish muhimdir., psixik rivojlanish nazariyalari insonning shakllanish jarayonini turli jihatdan yoritib beradi va ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, mashhur olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariyalar ham muhim ahamiyatga ega.

Masalan, Jan Piaje kognitiv rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan , Lev Vygotskiy ijtimoiy-madaniy muhitning rolini asoslab bergan . Erik Erikson esa shaxs rivojlanishini psixosotsial bosqichlar orqali izohlagan .Psixik rivojlanish ta'limoti shuni ko'rsatadiki, insonning intellektual va shaxsiy kamoloti uzluksiz jarayon bo'lib, ta'lim va tarbiya orqali boshqarilishi mumkin. Shu bois, pedagogik jarayonda yosh xususiyatlarini inobatga olish muhimdir.

Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish - yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim va dolzarb muam'adlaridan biridir. Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur hartidir. Inson - biosotsial mavjudotdir. Uning birligi, bir tomondan, kishining psixik, tug'ma ravishda tashkil topgan -xususiyatlari (masalan, ko'rish yoki eshitish sezgilarining, shuningdek, oliy nerv tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari), ikkinchi tomondan esa faoliyatning ongli sub'ekti va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatada uning xulq-atvor (masalan, axloqiy odatlar) xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Xo'sh, odam psixikasi va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan bu xususiyatlarni nimalar sirasiga kiritish mumkin? Inson psixikasining tabiati biologikmi yoki inqilobiy xarakterga egami? Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning muammosi o'z mohiyati jihatidan goyaviy xarakterga ega.

Shu bois, bu masalani hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli oqimlar, yo'nalishlar maydonga kelgan. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishda maydonga kelgan birinchi oqim biogenetik kontseptsiya, nazariya bo'lsa, ikkinchi oqim sotsiogenetik kontseptsiyadir

### **.Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Gafarov A. Z., Yugay A. X. Pedagogik amaliyot. Toshkent, 2002.
2. .Davletshin M. G., To'ychieva S. M. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.

3. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi. Toshkent, 1998,
4. Serbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. Toshkent, 1991.
5. Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at, Toshkent, 1998 8. G'oziev E.G. Psixologiya. Toshkent, 1994.